# ZAMONAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA UNI RIVOJLANTIRISH

**Abdullayeva Diloram Numonovna.**
**Fakultetlararo pedagogika va psihologiya**
**kafedrasi o'qituvchisi QDPI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirda yurtimizda ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, maktablarda dars jarayonlarini zamonaviylik asosida tashkil etish va bu orqali ta'lim sifatini va darajasini oshirish ustuvor vazifa etib belgilanmoqda. Bu jarayonni amalga oshirishda texnologiyalar, internet, zamonaviy o'qitish metodlari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar**: texnologiyalar, ta'lim, dars jarayoni, kundalik.com platformasi, kompyuter, interaktiv darslar

**Аннотация:** В данной статье рассматривается в настоящее время совершенствование системы образования в нашей стране на основе передового зарубежного опыта, организация учебного процесса в школах на основе современности и тем самым повышение качества и уровня образования является приоритетной задачей. Технологии, Интернет и современные методы обучения играют важную роль в реализации этого процесса.

**Ключевые слова**: технологии, образование, учебный процесс, платформа daily.com, компьютер, интерактивные уроки.

**Annotation:** This article presents currently, improving the education system in our country on the basis of advanced foreign experiences, organizing teaching processes in schools on the basis of modernity, and thereby increasing the quality and level of education is a priority task. Technologies, the Internet, and modern teaching methods play an important role in the implementation of this process.

**Key words**: technologies, education, teaching process, platform daily.com, computer, interactive lessons

Hozirda ta‘lim muassasalari zamonaviy texnologiyalari asosida jihozlanishi pedagoglarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi bo‘lgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida ham gapirmaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Shu jumladan, Respublikamizning barcha maktab muassasalari o'quv jarayonida o'qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo'llash, ta'lim tizimida axborot texnologiyalardan unumli foydalanish, ular yordamida ta'lim tizimini talab darajasiga etkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda.
Prezidentimiz ta'kidlaganidek: - Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekisrton ostonasi maktabdan boshlanadi desam to‘g‘ri bo‘ladi".
Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, maktab tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, maktablarda dars jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, maktab tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun hamma choralar ko‘rilmoqda. Jumladan:
1.Elektron darsliklar. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishda elektron darsliklarning alohida o'rni mavjud. Bu orqali maktab o‘quvchilariga qo‘shimcha qulayliklar yaratishga imkon tug‘iladi.

2.Multimedia vositalari va interfaol doska. Bular hozirda maktablarda qo‘llanilayotgan eng samarali zamonaviy texnologiyalardir. Interaktiv doska - bu dunyodagi an'anaviy doskalar va bo'rlar o'rnini bosadigan yangi raqamli o'qitish namoyish etuvchi qurilma. Zamonaviy ta’limni rivojlantirish uchun multimedia

vositalari va interfaol doskalar ham muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar orqali o‘qituvchilar darslarni mashg‘ulotli va qiziqarli qilishlari, o‘quvchilarga ma’lumotlarni vizual ravishda o‘rgatishlari va ta’lim jarayonini yanada samarali qilishlari mumkin. Interfaol doskalar esa o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishini ta’minlash, ma’lumotlarni yaxshi o‘rganishlarini va o‘zlashtirishlarini oshirishlari uchun juda foydali bo‘ladi. Bular bilan birga, multimedia vositalari va interfaol doskalar ta’lim jarayonini yanada qulaylashtirish, o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish va ta’limning sifatini yuqori darajada oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali o‘quvchilar ma’lumotlarni yanada yaxshi o‘rganib, tushunishlari va amaliyotga o‘tishlari mumkin bo‘ladi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi va ta’limning sifatini oshirish uchun juda muhimdir.

3.Kompyuter va internet. Zamonaviy ta'limda texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Maktablar kompyuterlar, internet va boshqa texnologiyalardan samarali foydalanish orqali o'quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va maqbul qilishlari kerak.

4.Kundalik.com platformasi. Kundalik.com — raqamli ta'lim platformasi bo'lib, o'qituvchilar uchun onlayn rejimda darslarni rejalashtirish, dars ishlanmalarini tuzish, o'quvchilarning davomati va yutuqlarini jurnal hamda kundalikning elektron shakllarida yuritish imkonini yaratadi. Kundalik.com ota-onalar va maktab hamkorligini mustahkamlash maqsadida joriy qilingan ta'lim resursi sanaladi. Ushbu platforma sinf jurnali va kundalik reyting daftarchasi o‘rnini maksimal darajada egallaydi va ularga bo‘lgan ehtiyojni yo‘qotadi. Kundalik.com zamonaviy ta’limning rivojlantirilishi va o‘quvchilarning ta’lim jarayonidan maksimal foydalanishini ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchilarning ma’lumotlarini yanada yaxshi o‘rganishlarini, tushunishlarini oshirishlarini va amaliyotga o‘tishlari uchun juda muhimdir .

Zamonaviy ta’limni rivojlantirish, avvalambor, yoshlar uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar asosida

jadal rivojlantirish uchun juda katta oʻzgarishlar va texnologik jihatdan zamonaviy taʼlimga boʻlgan ishlar soni tobora oshmoqda. Shu bilan birgalikda taʼlim tarbiya jarayonini amalga oshirishda zamonaviy taʼlimning oʻrni juda katta ahamiyatga egadir. Mukammal pedagogik texnologiya pedagogning vaqti va kuchini ijodiy ish uchun boʻshatib beradi. Xulosa shundaki, zamonaviy sharoitlar yoshlarga taʼlimni oʻzlashtirish uchun juda katta yordam berib kelmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.N.Nurishev. "TA’LIM TARAQQIYOTINI RIVOJLANTIRISH VA YANGILASHNING MUHIM OMILLAR".
2. N.SH.Tojiyev , A.A.Adilov Dars sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish-2021
3. Akbarovna, Abdullazhonova Shakhnoza. "PEDAGOGICAL CREATIVITY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 936-941.
4. Sh, Abdullajonova. "PROBLEMS OF UPDATING THE MECHANISMS OF USING FOREIGN EXPERIENCE IN THE FUNDAMENTAL REFORM OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
5. Akbarovna, Abdullazhonova Shakhnoza. "PEDAGOGICAL ACTIVITY AND ITS FEATURES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 942-945.
6. Akbarovna, Abdullajonova Shaxnoza. "Rus Tilini O’qitishda Yangi Pedagogik Texnologiyalardan Foydalanishning Ahamiyati." Academic Integrity and Lifelong Learning (2023): 61-63.
7. Akbarovna, Abdullajonova Shakhnoza. "Education Of Harmoniously Developed Generation In The Pedagogical Views Of Eastern Thinkers." JournalNX 7.03 (2021): 9-11.

8. Abdullazhonova Shakhnoza Akbarovna CULTURE AND PSYCHOLOGY OF COMMUNICATION IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

9. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 06, June (2023) 288-291

10. Abdullazhonova Shakhnoza Akbarovna "CONCEPT OF BUSINESS ETHICS AND BUSINESS COMMUNICATION" JMEA Journal of Modern Educational Achievements 2023, Volume 8 118-121

11. Абдуллажонова Шахноза Акбаровна КОНФЛИКТЫ МЕЖДУ ПЕДАГОГОМ И РОДИТЕЛЯМИ INTERNATIONAL CONFERENCE ON TEACHING, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES" 2023/2 (535-540)

12. Абдуллажонова Шахноза Акбаровна Назарова Малика Азиз кизи СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM Vol. 1. Issue 9 (101-110)

14.Абдуллажонова Шахноза Акбаровна Алишерова Хуснидабону Исмоилжон кизи

Исмоилова Машхурахон Обиджон кизи ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ЭТИКЕТ Published May 13, 2024 | Version v1(46-53)

15. Абдуллажонова Шахноза Акбаровна Абдурасулова Барчиной Кахрамонжон кизи

Усмонова Зиедахон Низомжон кизи

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНИКА КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА Published May 13, 2024 | Version v1(38-45)